



**ZAMONAVIY KLINIK
LABORATOR TASHXISI
DOLZARB MUAMMOLARI**
**xalqaro ilmiy-amaliy
anjuman**



27 dekabr 2022 yil



O'zbekiston Respublikasi Sog'Liqni saqlash vazirligi
www.ssv.uz

Toshkent tibbiyot akademiyasi
www.tma.uz

anemias in the female reproductive age group. So, in conclusion we can say that all the patients with hypothyroidism and hyperthyroidism should be periodically evaluated for probable hematological changes. Clinical diagnostic tests play major role in preventing disorders of a number of functions of thyroid hormones.

References:

1. Бабаджанова Ш.А., Курбонова З.Ч. Қалқонсимон без гормонларининг анемия ривожланишидаги патогенетик аспекти // Гематология ва қон хизматининг долзарб муаммолари. – 2005. - С. 96
2. Бабаджанова Ш.А. Курбонова З.Ч. Распространенность и течение анемии у больных с гиперфункцией щитовидной железы // Қон тизими касалликларининг замонавий ташхиси, даволаниши ва трансфузиология муаммолари. – 2007. – С. 68.
3. Коровкина, Е.В. Особенности развития и течения панкреонекроза после тиреоидэктомии / Е.В. Коровкина // Сборник материалов XXVI Международного конгресса ассоциации гепатобилиарных хирургов стран СНГ. – Санкт-Петербург. – 2019. – С. 18-21.
4. Стяжкина, С.Н. Патогенетическая связь: желчнокаменная болезнь и патология щитовидной железы / С.Н. Стяжкина, Е.В. Коровкина, Н.И. Хатипов и др. // Форум молодых ученых. – 2019. – №3(31). – С. 771-773.
5. Стяжкина, С.Н. Проблемы коморбидной патологии при гипофункции щитовидной железы / С.Н. Стяжкина, Е.В. Коровкина, А.Е Шкляев // LAP LAMBERT Academic Publishing, 2019. – 60 с.
6. Kurbonova Z.Ch., Salamov F.T., Fayzulina L.I. Exchange of iron in patients with diffuse toxic goiter accompanied by iron deficiency anemia // TTA, Ёш олимлар кунлари,, Toshkent, 2014. № 265-266.

KOMPOZIT QOPLANGAN YANGI TO'R SHAKLIDAGI IMPLANTATNING O'TKIR VA SURUNKALI TOKSIKLIGINI O'RGANISH

¹Bobojonova Sh.Sh., ¹Topilov I.I., ²Mardonov J.N.

¹Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, ²Akademik V. Voxidov nomli RIXIATM

Dunyo bo'ylab har yili 20 milliondan ortiq qorin bo'shlig'i churrasi operatsiyalari amalga oshiriladi, ulardan bir necha millioni sintetik implantlar bilan birlashtiriladi. Ushbu sintetik implantlardan polipropilen polimerli jarrohlilik to'plamlari eng ko'p ishlatiladi. Tizimli toksiklik xavfini to'g'ri va maqbul baholash uchun implantatsiya qilinadigan material miqdori bo'yicha standart yo'q. Polipropilen biriktiruvchi to'qimalarning o'sishini rag'batlantirish xususiyatiga ega, shu bilan churra nuqsoni joyida biriktiruvchi to'qima sinchini mustahkamlaydi. Propilendan yasalgan to'rning salbiy xususiyati - bu propilenga to'qima reaktsiyasining kuchayishi, shuningdek, mikroblarning kirib borishiga va ularning surunkali yallig'lanish rivojlanishi bilan uzoq muddat saqlanib qolishiga sabab bo'ladigan to'r tugunlari hosil bo'lgan joylarda mikro yoriqlar mavjudligi.

Tajribalar og'irligi 250-300 g bo'lgan 25 ta oq zotsiz kalamushlarda o'tkazildi. ISO 10993-2 talablariga muvofiq izofluran bug'i bilan umumi anesteziya ostida 2-3 sm uzunlikdagi medial laparotomiya amalga oshirildi va jigarning diafragma yuzasiga 1x1 sm o'lchamdag'i to'r implantatsiyasi qo'yildi. Laparotomik yara qatlam-qatlam qilib tikildi. O'tkir toksiklikni o'rganish uchun operatsiya qilingan hayvonlarning holati GOST ISO 10993-11-2011 bo'yicha belgilangan tartibda bir hafta davomida kuzatildi. Hayvonlar implantatsiyadan 1 hafta o'tgach narkozning katta dozasi orqali evtanaziya qilindi. Qon va biopsiya materiallari standart usulga muvofiq tekshirildi. Surunkali toksiklikni o'rganish uchun qorin bo'shlig'i jigarning diafragma yuzasida 1x1 sm o'lchamdag'i implant joylashtirildi va 1-3 oy davomida kuzatildi. Implantatsiyadan 1, 2, 3 oy o'tgach hayvonlar eksperimentdan chiqarildi, umumi va biokimyoviy tahlillar uchun qon olindi. Organlar va to'qimalarning biopsiyasi histologik tadqiqotlar uchun yuborildi.

Olingan natijalar tahlil natizasida aniqlandiki, kalamushlarning qorin bo'shlig'iga to'rli implantning kiritilishi nazorat hayvonlariga nisbatan ularning ichki organlarining massa koeffitsientlarining sezilarli o'zgarishiga olib kelmadidi. Shu bilan birga, o'rganilayotgan guruhlardagi kalamushlarda jigar vaznining tana vazniga nisbati sezilarli darajada oshgani aniqlandi, ammo buyraklar va taloq uchun massa koeffitsientlari intakt hayvonlarnikidan farq qilmadi.

Tajriba oxirida qonning umumi va biokimyoviy tahlili uchun har bir guruhdagi hayvonlardan qon namunalari olindi. Umumiy qon tahlili ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Bunda o'tkir va surunkali tajribalarda hayvonlarning nazorat guruhiga nisbatan gematologik ko'rsatkichlar (eritrotsitlar, gemoglobin, leykotsitlar, limfotsitlar, monotsitlar, eozinofillar) sezilarli farqlar qayd etilmagan. O'rganilayotgan ko'rsatkichlar darajasi hayvonlarning nazorat guruhidagi fiziologik ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadigan parametrlarga mos keldi.

Qon zardobini biokimyoviy baholashda eksperimental va nazorat guruhlari hayvonlaridagi farq kichik chiqdi. O'rganilgan parametrlarning darajasi ushbu turdag'i hayvonlar uchun fiziologik me'yorning parametrlariga to'g'ri keldi.

Xulosa. Kompozit qoplamlari to'rli implantning o'tkir toksikligini o'rganish natijalariga ko'ra (toksikometriya ma'lumotlari, o'tkir zaharlanishdan keyingi davrda eksperimental hayvonlarni kuzatish, shuningdek, histologik tadqiqot natijalari) olindi. Yuqorida ko'rsatilgan implantni bir martalik qo'llashda kam toksik dorilar sinfiga kiritish mumkin. To'rli implantning qorin bo'shlig'iga bir marta kiritilishi hayvonlarning o'limiga olib kelmasligiga asoslanib, JSSTning joriy tasnifiga ko'ra, ushbu preparatning toksikligi ifoda etilmaydigan deb tasniflanishi mumkin. GOST 12.1.007-76 ga muvofiq, toksiklik darajasiga ko'ra, o'rganilayotgan preparat xavflilikning IV sinfiga - xavflilik darajasi past moddalarga tegishli.

Adabiyotlar.

1. Boquist L. Alloxan diabetes in mice: study of potentiating and antagonizing factors / L. Boquist // Diabetologia. 2014. V. 13. -B. 383-389.
2. Kucheryavenko A.F., Spasov A.A., Naumenko A.V. Yangi gipoglikemik birikma miglidolning eksperimental qandli diabetdagi gemostaz parametrlariga ta'siri. Endokronologiya muammolari No 1. - 2015.- 61-jild.- 51-56 бетлар.

3. Kurbonova Z.Ch. Yuldasheva N.B., Zokirova N.B. Fastokin pestisidini oshqozonga ta'sirini o'rganish // Biofizika va biokimyo muammolari. Toshkent, 2021. –B. 26-27.

4. Suxov I. B., Chistyakova O. V., Shipilov V. N., Doilnitsyn A. M., Shpakov A. O. Streptozotsinli diabetga chalingan kalamushlarda miyada serotonin va dopamin tomonidan adenilaklazaning fazoviy xotirasi va tartibga solinishi. Rossiya fiziologiya jurnalı. I. M. Sechenov.- No 3.- 2015.- 101-jild.- B. 279-290.

BIOKIMYOVIY QON TEKSHIRUVINING DIAGNOSTIK AHAMIYATI

Dilmurodova O.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Biokimyoviy qon tekshiruvi - bu ichki organlarning (jigar, buyraklar, oshqozon osti bezi, o't pufagi va boshqalar) ishini baholash, metabolizm (lipidlar, oqsillar, uglevodlar almashinuvi) haqida ma'lumot olish, zaruratni aniqlash imkonini beruvchi laborator diagnostika usuli hisoblanadi. Qon olish joyi infeksiya tushishini oldini olish uchun zararsizlantiriladi va asosan kubital venadan yoki boshqa tomirlardan qon olinib, probirkaga quyiladi va biokimyoviy laboratoriya ga yuboriladi.

Tahlil natijalarida quyidagi biokimyoviy ko'rsatkichlarni har bir kasallik uchun alohida o'rganish mumkin. Masalan, bugungi kunda yurak-qon tomir kasallilari, metabolizm buzilishi va boshqa ko'plab kasalliklar asosida qon tarkibidagi umumiy lipidlar almashinuvining buzilishi bosh omil sanaladi. Hozirgi kunda qon namunalarini biokimyoviy tekshirishda respublikamiz klinik-diagnostik labaratoriylarida bir qator yangi zamонавији asbob-uskunalar, jumladan Mindray BS 240-T rusumidagi ko'p funksiyali klinik-kimyoviy analizatordan keng foydalanimoqda. Ushbu apparatlarda soatiga ikki yuzdan ortiq test taxlillari o'tkazish imkoniyatiga ega. Bu apparatning afzallik jihatlari shundan iboratki, smart namuna olish texnologiyasi HbA1c tahlillari uchun gemolizatni avtomatik tayyorlashni ta'minlaydi. Oldindan ishlov berishsiz tahlillarni bajarish yuqori o'tkazuvchanlikni kafolatlaydi. Ushbu apparatning texnik xususiyatlarini afzalligi reagentlarning tejamkorligi, kyuvetalarning soni ko'pligi, avtomatik boshqarilishi, absorbsion fotometriya, turbidimetriya, ion selektiv, elektrond taxlili kabi o'lchov prinsiplarining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Semizlik, gormonal buzilishlar, yurak-qon tomir tizimi kasalliklarida qon takibini biokimyoviy tekshirish asosida bir qancha mummolarga yechim topish mumkin. Biokimyoviy qon tekshiruvi bemor o'zini yomon his qilganda va ichki organlarning noto'g'ri ishlashiga shubha qilganda shifokor buyuradigan muntazam tadqiqotlardan biridir. Har yili tibbiy ko'rikdan o'tadigan yoki majburiy profilaktik tekshiruvdan o'tadigan odamlar uchun biokimyoviy qon testi majburiydir.

C-reaktiv oqsil (CRP) organizmdagi hozirgi yallig'lanish jarayonining informatsion ko'rsatkichidir. Bu oqsil jigar tomonidan sintezlanadi va yallig'lanishning o'tkir bosqichining belgilaridan biridir. Qonda CRP darajasi yuqumli kasallik, jarohatlar boshlanganidan keyin yoki operatsiyadan keyingi